

# "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar bo'yicha ovoz berish yakunlari (18.04.2025)

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/disclosure/shareholder-meeting/o-zkimyosanoat-aksiyadorlik-jamiya-ti-ovoz-berish-yakunlari-18-04-2025>

**Yig'ilish o'tkazilgan joy:**

Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy.

**Yig'ilish o'tkazilgan sana:**

18.04.2025-yil.

**1.** Sanoq komissiyasi a'zolari soni 3 (uch) kishidan iborat quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

*B. Sultanov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari;*

*M. Xasanova – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi bosh mutaxassisi;*

*D. Ziyodov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.*

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 1 671 293 147 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.

**2.** Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi reglamenti quyidagi tartibda tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlari uchun – 10 daqiqagacha;

- qo'shimcha nutq va munozaralar uchun – 5 daqiqagacha;

- ovozlarni hisoblash uchun tanaffus – 5 daqiqa.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 1 671 293 147 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.

**3.** "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ustav kapitalidagi "O'zkimyosanoat" AJga tegishli

100 foiz ya'ni har birining nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan umumiy nominal qiymati

2 662 428 497 387 so'mlik, 2 662 428 497 387 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiya

paketini balans (qoldiq) qiymatida "O'zkimyosanoat" AJ ustav kapitalidagi Tiklanish

va taraqqiyot jamg'armasi ulushini hamda yetmagan qismiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi ulushini mos ravishda kamaytirish hisobiga Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkazish bilan bog'liq yirik bitim ma'qullansin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – yo'q, Qarshi – 1 671 293 147 ovoz yoki 100 %, Betaraf – yo'q.

Qonunning 60-moddasiga asosan ushbu masala bo'yicha qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rttdan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi toplanmaganligi, qarshi ovoz berilganligi bois, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinmadi.

**4.1.** "O'zkimyosanoat" AJning yangi tahrirdagi ustavi mazkur bayonnomaning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

**4.2.** "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruviga o'rnatilgan tartibda Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish vazifasi yuklatilsin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 1 671 293 147 ovoz yoki 100 %,                      Qarshi – yo'q,                      Betaraf – yo'q.

**5.** "O'zkimyosanoat" AJning yangi tahrirdagi "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomi mazkur bayonnomaning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 1 671 293 147 ovoz yoki 100 %,                      Qarshi – yo'q,                      Betaraf – yo'q.

**6.1.** "O'zkimyosanoat" AJning yangi tahrirdagi "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizomi mazkur bayonnomaning 3-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

**6.2.** "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruviga ushbu bayonnoma ilovalariga muvofiq tasdiqlangan nizomlarni jamiyat faoliyatiga tatbiq etish hamda qat'iy amal qilinishini ta'minlash topshirilsin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 1 671 293 147 ovoz yoki 100 %,                      Qarshi – yo'q,                      Betaraf – yo'q.